

“ EKOLOGIK MADANIYAT SHAKLLANTIRISH UCHUN EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI KUCHAYTIRISH CHORALARI “

Azamova Setora Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy kafedra f.f.d.(Phd)

Suyunova Zarnigor Nodir qizi

SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishning dolzarbligi hamda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan .Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda innovatsion texnologiyalar ,qayta tiklanuvchi energiya manbalari va chiqindilarni qayta ishlash tizimining ahamiyati bayon etilgan*

Kalit so'zlar: *Ekologik madaniyat, ekologik xavfsizlik, ekologik tarbiya ,ekologik ong, innovatsion texnologiyalar ,barqaror rivojlanish.*

Tabiatga bo'lgan beparvolik, cheksiz iste'mol va noto'g'ri faoliyat Yer sayyorasida qaytarib bo'lmas jarayonlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishi, havo va suvning ifloslanishi o'rmonlarning kamayishi kabi muammolar nafaqat tabiatga, balki inson hayoti va kelajagiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ekologiyaga chiqarilayotgan zararli gazlar Yer haroratining asta-sekin oshishiga olib kelib, global iqlim o'zgarishi xavfini kuchaytirmoqda. Bu esa muzliklarning erishi, toshqinlar, qurg'oqchilik kabi hodisalarni ko'paytiradi. Suv resurslarining ifloslanishi ham jiddiy tashvish uyg'otadi. Daryolar va ko'llarga tashlanayotgan chiqindilar ichimlik suvining kamayishiga, suvda yashovchi organizmlarning yo'qolishiga olib kelmoqda. Ekologik muammolarning chuqurlashib borayotgani insoniyat oldiga yangi mas'uliyatni qo'yadi. Aholining ekologik madaniyatini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir Ekologik madaniyat haqida so'z yuritishdan oldin “Ekologiya nima” degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir Ekologiya grekcha “oikos”-“uy”, “turar joy” va “logos”-“ta'limot” yoki keng ma'noda “tabiatda qanday jamiyat bo'lishidan qat'i nazar ,tirik organizmlar (mavjudotlar) yashaydigan makon haqidagi ta'limotdir “ ”Ekologiya” so'zi fanga nemis biolog olimi Ernest Gekkel (1866-1869-yillarda) tomonidan olib kirilgan. Ekologik madaniyat –bu insonning tabiatga ongli munosabati , atrof –muhitga zarar yetkazmaslikka intilishi va ekologik qadriyatlarni kundalik hayotda qo'llay olishi demakdir. Ushbu madaniyatni shakllantirish esa tizimli yondashuvni, davlat, jamiyat va ta'lim muassasalarining hamkorligini talab qiladi. Mukammal ekologik bilimga bo'lgandagina tabiat muhofazasi bir davlat, millatning ishi emas balki xalqaro muammo ekanligini tushunish mumkin. Tabiatni muhofaza qilish muammolari bilan turli yoshdagi insonlar shug'ullanish mumkin. Bu ishning asosiy maqsadi: maktabdan tortib to oliy o'quv yurtlari va keng aholi o'rtasida yerga bo'lgan mehr-muhabbatni, qiziqishlarni oshirish bilan birgalikda ularga butun jonli tabiatga ongli va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni , undagi havoni, yerni, suvni, o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish , tabiatni toza va go'zal holda saqlash hamda kelgusi

avlodlarga yetkazish borasida qiziqarli ma'lumotlar bilan ularni jonkuyar tabiatshunoslar qilib tarbiyalash uchun yangi o'quv qo'llanmalar yaratishni taqozo qiladi.

Televizion ko'rsatuvlar ,ijtimoiy tarmoqlar,ekologik bloglar va video roliklar orqali aholiga ekologik madaniyatni yetkazish bugungi kunda juda samarali vositadir.Shuningdek daraxt ekish tadbirlari,chiqindilarni ajratib to'plash mahallalarda "yashil hudud"yaratish kabi amaliy ishlar ekologik ongni shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ekologik xavfsizlik – bu fuqarolarning hayoti ,sog'lig'i va farovonligini atrof –muhitning zararli omillaridan himoya qilishga qaratilgan tizimdir . Aholining ekologik madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa ,ekologik xavfsizlikni ta'minlash ham shunchalik oson amalga oshadi . Hozirgi kunda global isish ,suv resurslarining kamayishi , chiqindilarning ko'payishi ,havoning ifloslanishi kabi masalalar ekologik xavfsizlikni kuchaytirishni talab qilmoqda .Ekologik xavfsizlikni kuchaytirish choralari bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.Negaki chiqindisiz ishlab chiqarish,qayta ishlash texnologiyalari,energiya tejamkor qurilmalar ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi .Yashil energiya manbalaridan foydalanish esa quyosh,shamol va biogaz energiyasini kengaytirish orqali atrof- muhitga zarar yetkazadigan energiya manbalariga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Har bir hududda chiqindilarni turkumlab yig'ish va qayta ishlash infratuzilmasi rivojlantirilsa,ekologik muammolar keskin kamayadi.Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov barcha ijtimoiy ,iqtisodiy,huquqiy,ekologik va geografik xususiyatlarni inobatga olib ,mamlaktimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan .Ular jumlasiga havo va suv muhitiga bo'ladigan zararli ta'sirlarni kamaytirish , sanoat korxonalarida zamonaviy tozalash qurilmalarini o'rnatish ,mavjud yer va qazilma boyliklaridan oqilona foydalanish , jonli tabiat genofondini saqlab qolish shahar va qishloqlarda aholi uchun qulay sharoit yaratish , jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish kabi masalalar kiradi. Bu masal to'g'risida birinchi prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida alohida qayd etganidek , "...atrof-muhitni muhofaza qilish aholini ,ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash ,ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.Xususan, atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va o'rnini belgilashga qaratilgan "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati yetdi , deb o'ylaymiz", degan ko'rsatmalari tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish sohasida bir qator muammolarni bartaraf etishda asos bo'ldi.Shu munosabat bilan ,O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi 142-sonli qaroriga asosan "2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar Dasturi " qabul qilinganligini alohida ta'kidlash lozim . Ushbu dasturni bajarish quyidagi beshta asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- aholi va davlat uchun yashash muhiti va ekologik xavfsizlik darajasining kafolatlangan va qulay shart –sharoitlarini yaratish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini ekologizatsiyalashtirish, texnologik jarayonlarni va tabiatni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish;
- atrof-muhitning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish;
- atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanish, ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish maqsadlaridagi ta'lim sohasida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini va me'yoriy-uslubiy bazani rivojlantirish;
- tabiatni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish va tabiiy muhitni transchegaraviy ifloslanishining oldini olish bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

Umuman olganda, tabiat mutanosibligining buzilishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va atrof-muhit ifloslanishining 90-97 % insonlarning xo'jasizlarcha faoliyat yuritishlari bilan bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va ularni ekologik muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik, iqtisodiy rivojlanishda ekologik talablarni inkor etish, tabiat boyliklarining kamayib ketishiga, ekologik muvozanatning buzilishiga, jamiyatning esa inqiroz holatiga tushib qolishiga va ekologik xavf paydo bo'lishiga olib keladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytamanki jamiyatda ekologik madaniyat yuqori bo'lmasa, eng mukammal qonunlar ham yetarli samarani bermaydi. Shuning uchun har bir fuqaro tabiatga nisbatan mas'uliyatli bo'lishi, davlat va jamiyat esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi lozim. Faqatgina umumiy hamkorligina ekologik barqaror kelajakni ta'minlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent: Ma'naviyat, 2010y
2. Islom Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent. 2010.
3. O'zbekiston Respublikasi "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni.
4. Azamova Sitora. Umumta'lim maktab va o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning usul va vositalari. // Interpretation and researches. – 2024.
5. Xoliqov A. Ekologik madaniyat asoslari. – Toshkent: Fan 2019.
6. Abdikarimov B, G'aniyev H. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent, 2021.

